



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 03 | pp. 280-292 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SMART BOJXONA TIZIMI RIVOJLANISHIDA GONG KONG SMART BOJXONA TIZIMINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOJXONASI TIZIMI BILAN QIYOSIY TAHLILI



Hamroev Ulug'bek Rustamovich

Bojxona qo'mitasi bojxona instituti

dosenti, t.f.f.D. (PhD),

E-mail: uzbekiston@inbox.ru

Yo'ldoshev Jasurbek Baxtiyor o'g'li

Bojxona qo'mitasi bosh inspektori

E-mail: jasuryuldoshev121@gmail.com

Ibragimov Diyorbek Shuxrat o'g'li

Bojxona instituti kursanti,

E-mail: ibragimov12512@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bojxona rasmiylashtiruvi samaradorligini oshirish, huquqni muhofaza qilish organlarining imkoniyatlarini kuchaytirish va aholiga xizmatlarni yangilash uchun Gong Kong bojxonasi va Aksiz Departamentining "Smart bojxona rejasi" ("Smart Customs Blueprint") haqida ma'lumotlar beriladi. Shu bilan birga O'zbekiston va Gongkong bojxona xizmatlarining qiyosiy tahlili qilingan. Bundan tashqari, Smart Bojxonani yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar taklif sifatida berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Smart Bojxona, Smart Tergov, Smart Savdo, Smart Biznes, iPASS, Katta ma'lumotlar, Yagona Savdo Oynasi, Vakolatli Iqtisodiy Operator, iAM SMART bot, Murakkab analitik tizimlar

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СМАРТ-ТАМОЖЕННОЙ СИСТЕМЫ ГОНКОНГА С ТАМОЖЕННОЙ СИСТЕМОЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РАЗВИТИИ СМАРТ-ТАМОЖЕННОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация. В данной статье представлена информация о проекте «умной таможни» Департамента таможни и акцизных сборов Гонконга, направленном на повышение эффективности таможенного оформления, укрепление потенциала правоохранительных органов и улучшение обслуживания населения. При этом был проведен сравнительный анализ таможенных служб Узбекистана и Гонконга. Кроме того, в качестве предложений были даны действия, которые следует реализовать для предотвращения различных кибератак.

Ключевые слова: Умная Таможня, Умное Расследование, Умная Торговля, Умный Бизнес, iPASS, Большие Банские, Единое Торговое Окно, Уполномоченный Экономический Оператор, Бот iAM SMART, Передовые аналитические системы

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE SMART CUSTOMS SYSTEM OF HONG KONG WITH THE CUSTOMS SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE DEVELOPMENT OF THE SMART CUSTOMS SYSTEM

Abstract. This article provides information on the Smart Customs Blueprint of the Hong Kong Customs and Excise Department to improve the efficiency of customs clearance, strengthen the capacity of law enforcement agencies and upgrade services to the public. At the same time, a comparative analysis of the customs services of Uzbekistan and Hong Kong was made. In addition, actions that should be implemented in order to prevent various cyber attacks were given as suggestions.

Key words: Smart Customs, Smart Investigation, Smart Trade, Smart Business, iPASS, Big Data, Trade Single Window, Authorized Economic Operator, iAM SMART bot, Sophisticated Analytic Systems

Kirish

Bizga ma'lumki, hozirgi kunda bojxona sohasi davlatni iqtisodiy xavfsizligi va iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Shu sababli dunyo mamlakatlari bojxona protseduralarining samaradorligi va shaffofligini oshirishga imkon beradigan "Smart" bojxona tizimlarini joriy etishga intilmoqda.

Smart bojxona – bu sun'iy intellekt (SI), kompyuter dasturlarining o'rganishi (KD), Internet buyumlari (IOT), katta ma'lumotlar bazasi (BIG DATA), blokcheyn va boshqalar kabi ilg'or texnologiyalardan foydalanishga asoslangan raqamlashtirilgan bojxona nazorati tushunchasi.

Har bir davlatda bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, bojxona tartib-taomillaridan qulay foydalanish, maxsus soddallashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirishda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga qulay tizimlar yaratib berish bugungi kunda dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda aqlli zamonaviy axborot texnologiyalarini, ya'ni Smart boshqaruv asosida bojxona jarayonlarini optimallashtirishda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar bazasi, internet tarmog'i, blokcheyn va bir qator ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish muhim dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib bormoqda.

Asosiy qism

Gong Kong bojxona va aksiz departamenti (keyingi o'rinlarda - C&ED) bojxona rasmiylashtiruvini samaradorligini oshirish va huquqni muhofaza qilish organlarining imkoniyatlarini yanada mustahkamlash va aholiga xizmat ko'rsatishni yaxshilashga harakat qiladi. Bosh direktor Lousiye Ho Pui-shan o'zining 2018 va 2020-yillardagi Siyosiy murojaatnomalarida huquqni muhofaza qilish organlarining imkoniyatlarini oshirish uchun ular faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni qo'llashni ilgari surdi [1]. Shu maqsadda 2019-yilda "**Smart Bojxona Rejasi**" ("Smart Customs Blueprint") dasturi qabul qilindi.

“Smart bojxona rejasi” dasturining asosiy maqsadi bojxona rolini va xizmat ko‘rsatish rejimini kengaytirish, hamda bojxona funksiyalarini takomillashtirishdan iborat.

“Smart bojxona rejasi” quyidagi 1-, 2-jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

Smart bojxona rejasi			
	1-yo‘nalish	2-yo‘nalish	3-yo‘nalish
Bojxona roli	huquqni muhofaza qiluvchi va xizmat ko‘rsatuvchi organ	TIF ishtirokchilari uchun savdoni osonlashtiruvchi tizim	iqtisodiy rivojlanish rag‘batlantiruvchisi
Xizmat ko‘rsatish rejimi	chegara va ichki nazorat	ichki iqtisodiyot	global iqtisodiyot

2-jadval

	1-yo‘nalish	2-yo‘nalish	3-yo‘nalish	4-yo‘nalish
“Smart bojxona rejasi” konsepsiyaning 4 ta asosiy yo‘nalishi	Smart chegara boshqaruvi	Smart tekshirish va ishni boshqarish	Smart savdoni osonlashtirish	Smart biznesni rivojlantirish

C&ED “Huquqni muhofaza qiluvchi organ va xizmat ko‘rsatuvchi provayder” sifatidagi an’anaviy rolini saqlab qolish bilan bir qatorda, “Savdoga ko‘maklashuvchi” va “Iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi” rollarini kuchaytirish orqali yanada ko‘proq iqtisodiyotga hissa qo‘shmoqda. Guangdong-Gonkong-Makao Buyuk kontekstida mintaqaviy va global iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shish maqsadida ichki iqtisodiyot uchun xizmat ko‘rsatish, Bay hududini rivojlantirish va “Bir makon bir yo‘l tashabbusi”ga qulayliklar yaratish — C&EDning asosiy yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Asosiy yo‘nalishlaridan birini tahlil qiladigan bo‘lsak, “Bir makon bir yo‘l tashabbusi” [2] 2013-yilda Xitoy hukumati tomonidan 150 ga yaqin davlatlar va Xalqaro tashkilotlarga sarmoya kiritish uchun qabul qilingan global infratuzilmani rivojlantirish strategiyasidir. Bundan ko‘rinib turibdiki, Gong Kong chet davlatlar bilan o‘zaro aloqani yanada yaxshilash maqsadida bojxona sohasini isloh qilish kerakligi ayon bo‘lib qoldi [3]. Demak, C&ED asosiy yo‘nalishlariga to‘laqonli yechim topish maqsadida, “Smart bojxona rejasi”ni ishlab chiqdi. U orqali barchasi birda Smart bojxonani yaratish, shakllantirish, ishlab chiqish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish, qurilmalarni joylashtirish, shuningdek dastur ichida ma’lumotlar almashish imkonini ko‘zda tutadi. “Smart bojxona rejasi”ning quyidagi 4 ta asosiy tizimini innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali C&ED funksiyalarini yanada yaxshiladi [4].

1. “Smart chegara boshqaruvi” (“Smart Boundary Management”) tizimi

Smart chegara boshqaruvida bojxona rasmiylashtiruvda odamlar va tovarlarni tezkor rasmiylashtirishni osonlashtirish uchun Smart texnologiyalar joriy qilingan. Ular

chegaralarda turadi va shu bilan birga bojxonaga oid huquqbuzarliklarni aniq va maqsadli hal qilish imkonini beradi. So‘nggi yillarda rivojlangan tekshirish uskunalari, masalan, Gantry Type X-ray Vehicle Inspection tizimlar, Mobil rentgen apparatlarini skanerlash tizimlari, qo‘lda Rentgenogramma tasvirlagichlar, Raman Spektrometrlari va boshqalar joriy etildi.

Sun‘iy intellekt (*keyingi o‘rinlarda SI*) paydo bo‘lishi bilan C&EDning avtomatlashtirilgan kontrabandani aniqlash funksiyalariga ega bo‘lgan yanada ilg‘or uskunalarini bojxona amaliyotiga joriy qilinmoqda. Ular qatoriga SI funksiyalariga ega mavjud rentgen tekshiruvi va kompyuter tomografiyasi (KT) skanerlarini avtomatik aniqlash qurilmalari ham kiradi.

Shu bilan birga hozirgi vaqtda, C&ED skanerlangan tovarning yuqori aniqlikdagi 3D tasvirlarini ishlab chiqarishga qodir bo‘lgan hamda aniqroq ma‘lumot va avtomatlashtirilgan kontrabandani aniqlash funksiyasiga ega kompyuter tomografiyasi (*2-rasm*) skanerlarini xarid qilgan.

Respublikamizda ToshAERO va Samarqand xalqaro aeroportlarida ham samaradorligi oddiy skanerdan ancha yuqori bo‘lgan skanerlarimiz mavjud. Ushbu qurilmalar kontrabanda ashyolarini aniqlash samaradorligin oshiradi, hamda chegara nazorat punktlarida yo‘lovchilar va tovarlarni tezroq rasmiylashtirishga yordam beradi.

Respublikamizda bu turdagi uskunalarining birinchi partiyasi (*ya‘ni rentgen tekshiruvi uchun 38 ta avtomatik aniqlash moslamalari*) (*1-rasm*) allaqachon ishga tushirilgan. Shuningdek, 6 ta kompyuter tomografiyasi va 40 ga yaqin noqonuniy holatlarni avtomatik aniqlashni o‘z ichiga olgan ikkinchi partiya rentgen tekshiruvi qurilmalari 2022-yildan buyon foydalanib kelinmoqda.

Rentgen tasvirlarini tahlil qilish orqali yo‘lovchi bagajidagi yuklar ro‘yxatini avtomatik shakllantirish hamda ular ustidan xavflarni boshqarish tizimini (*keyingi o‘rinlarda - XBT*) qo‘llagan holda avtomatik qizil, yashil, sariq yo‘laklarga yo‘naltirish – ularning asosiy vazifasi hisoblanadi.



1-rasm. Rentgen orqali avtomatik aniqlash tizimi.

Murakkab analitik tizimlar. C&ED chegarada yo'lovchilar, tovarlar va transport vositalarini bojxona nazoratidan o'tkazishda xavflarni aniqlashga yordam berish uchun murakkab tahliliy tizimlardan foydalanadi. 2020 yildan boshlab bir qator tizimlar bosqichma-bosqich bojxona amaliyotiga joriy qilingan. Quyida ularga to'xtalib o'tamiz.

Rentgen tasvirlarini baholash platformasi (Platform for X-ray Image Evaluation). Real vaqt rejimida transport vositalarining rentgen tasvirlarini ma'lumotlar bazasidagi rentgen tasvirlari bilan taqqoslash orqali tekshirish samaradorligini oshiriladi. Ya'ni, masalan bitta tovarni ma'lumotlar bazasidagi o'sha tovarning haqiqiy rentgen tasviri bilan solishtirish hisobiga holatga baho beriladi. Bunda o'sha tovarda qandaydir farq bo'ladigan bo'lsa, bojxona ko'rigi amalga oshiriladi.




2-rasm. 3D Kompyuter tomografiyasi.

Avtomobilni tekshirish va strategik tahlil tizimi (Vehicle Inspection and Strategic Analysis System). Transchegaraviy harakatlanayotgan shaxsiy avtomobillarga bojxona rasmiylashtiruvini yengillashtirish uchun keng qamrovli ma'lumotlarni tekshirish orqali, raqamlashtirilgan avtomobil qidiruv hisobotini, shuningdek, bir zumda xavf profillari tekshirish qobiliyatini ta'minlashga ixtisoslashtirilgan tizim hisoblanadi.

Aqlli spirtli ichimliklar bojini baholash tizimi (Smart Liquor Duty Assessment) (*3-rasm*) Ma'lumotlar bazasidan foydalanib, suyuqlik yorliqlarini bir zumda haqiqiy yorliqlar bilan solishtirish orqali boj qiymatini tezkor baholashni ta'minlash, shu bilan suyuqlik bo'yicha bojni baholashda katta samaradorlikka erishish va yo'lovchilarni kutish vaqtini qisqartirishga ixtisoslashtirilgan tizim hisoblanadi.

Yuk to'g'risidagi katta ma'lumotlar tizimi (Pilot Scheme of the Cargo Big Data System). Katta ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellektni qo'llash orqali shubhali yuk va transport vositalarini identifikatsiyalashga ko'maklashish, shu bilan C&EDning katta miqdordagi yuk ma'lumotlarini tahlil qilishda xavflarni boshqarish qobiliyatini oshirishdan iborat. Tizim, shuningdek, qonuniy yuklarni tekshirishni minimallashtiradi va bojxona rasmiylashtiruvi samaradorligini oshiradi.

Davlat xizmatlarini yangilash tizimi. Bu tizim C&EDning istiqbolini belgilab beradi. Smart tashabbuslar sayohatchilarga nazorat punktlarida ko'rsatiladigan xizmatni amalga oshiradi.



3-rasm. Spiritli ichimliklar bojini baholash aqilli tizimi.

Logistika sektori yuk agentlariga mobil qurilmalardan foydalangan holda yuklarni olish uchun navbatga turish imkonini beruvchi havo transporti yuklarini rasmiylashtirish tizimi 2020-yilda joriy etilgan. Tizim treyderlarga yuk terminallariga yetib borish vaqtini taxmin qilish va kutish vaqtini minimallashtirish imkonini beradi.

Sayohatchilar uchun bojxona nazorat punktlarida Robot yordamchilari (4-rasm) va C&ED veb-saytida Online chatbotni o'z ichiga olgan interaktiv tizimi ishlab chiqilgan. C&ED ushbu interaktiv xizmatlarida so'rovlarni muntazam ravishda tahlil qilish va xizmatlarini yaxshilashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.



4-rasm. Robot yordamchilari.

2. Smart tekshirish va ishlarni boshqarish tizimi (“Smart Investigation and Case Management”) [5]. Bu tizim katta ma’lumotlar bazasi va backend Smart tizimlarini joriy etish orqali C&EDning ma’lumotlar almashish, xizmat qarorlarini qabul qilishda zarur (razvedka) ma’lumotlarini yig’ish, tekshirish, tahlil qilish va boshqarish imkoniyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bojxona jinoyatlarini tahlil qilish tizimi (5-rasm) C&EDga bojxona bilan bog’liq huquqbuzarliklarni aniqlash va tekshirishda yordam beradi.



5-rasm. Bojxona Jinoyatlarini tahlil qilish tizimi.

Smart Investigation va Customs Crime Analytic System tizimi

Ushbu tizimlar 24/7 formatda ishlaydi va bir vaqtning o’zida bir nechta platformalar bilan integratsiya qilingan, bojxona organining to’liq ish jarayonida dastlabki ishlarni bajaradi. Shubhali saytlar va internet do’konlar aniqlangandan so’ng, mansabdor shaxslar test xaridlarini amalga oshirishlari, asl savdo belgilari va mualliflik huquqi egalari bilan muloqot qiladilar. Shubha yoki xavf kuchaygan taqdirda, bojxona organlari xodimlari tomonidan qo’shimcha tekshiruvlar va choralar ko’riladi. Tizim tadqiqot davomida turli parametrlar bilan ishlaydi, ular vaqti-vaqti bilan tekshiriladi.

Bundan tashqari, tizimga xizmat qiluvchi superkompyuter analitik o’quv dasturlari bilan jihozlangan bo’lib, ular yordamida yangi tendensiyalarni tanib olishi va shu kontekstda tez-tez ishlatiladigan atama va iboralarni o’rganishi mumkin. Natijada, qidiruv paytida tizimdan hech qanday joriy ishlanma yashirilmaydi.

Big Data Analytics System 2023-yil aprel oyida o’zining eng katta muvaffaqiyatini qayd etdi. Unda 6 ta turli ijtimoiy media kanallari orqali bir nechta akkauntlar yordamida soxta brendli mahsulotlarni taklif qilgan beshta do’konni aniqladi. Shahar bo’ylab o’tkazilgan ushbu reydy bo’yicha 5 ta savdo egasi va boshqa ishchi xodimlari hibsga olindi. Gonkong bojxona va aksiz departamenti bozor qiymati taxminan 18 000 yevroga teng bo’lgan 820 dan ortiq soxta kiyim-kechak, sumka va soatlarni musodara qildi.

“Smart tekshirish (“Smart Investigation”) tizimi

2017-yilda Intellektual mulk huquqlari jinoyatlariga (*keyingi o‘rinlarda IPR*) qarshi kurashish uchun “IPR Big Data Analytics System”ni (6-rasm) joriy etishdagi muvaffaqiyati bilan C&EDni xavfli giyohvand moddalar savdosi kabi bojxona bilan bog‘liq boshqa huquqbuzarliklarni qamrab olish uchun tizimni kengaytirish ustida ishlamoqda. Tizim bir nechta onlayn platformalarda IPRni buzuvchi faoliyatni kuzatish uchun kechayu kunduz ishlaydi. Tizim o‘zaro tahlil qilish uchun turli Internet platformalarida IPRning buzilishiga oid katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘playdi va taqqoslaydi, bu esa C&EDga onlayn kontrafakt va Internet qaroqchilik faoliyatining keng tarqalgan tendensiyalarini ochishda yordam beradi. 2020-yilda tizim Internetda aniqlangan IPR jinoyatlarining 40% dan ortig‘ini ochishga hissa qo‘shgan.

Bojxona jinoyatlarini tahlil qilish tizimini (Customs Crime Analytic System) rivojlantirish maqsadida noqonuniy sigaretalar va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan turlarni noqonuniy kontrabanda mahsulotlarini olib kirish va eksport qilishga chek qo‘yildi. C&ED uchun Bojxona jinoyatlarini tahlil qilish tizimi xizmat faoliyatiga zarur bo‘lgan (*razvedka*) ma’lumotlarini qayta ishlash, ishlarni tekshirish va jinoyatlarni aniqlashda o‘z imkoniyatlarini oshirish uchun Smart tahlil platformasi bo‘lib xizmat qiladi.



6-rasm. Katta ma’lumotlarni tahlil qilish tizimi.

“Ishlarni boshqarish” (“Smart Case Management”) tizimi [6].

Yillar davomida C&ED tomonidan aniqlangan bojxona bilan bog‘liq huquqbuzarliklar bo‘yicha ishlar soni ko‘paydi. Bunda 2015 yilda 18 611 holat qayd etilgan bo‘lsa, 2019-yilda esa 32 946 taga yetdi. Shuningdek, olib qo‘yilgan musodara tovarlarning qiymati 2015-yildagi 1,22 milliard dollardan 2019-yilda 2,29 milliard dollargacha oshdi. Shu sababli bojxona bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida C&ED tomonidan Smart Seizure Management System (SSMS)ni ishlab chiqilmoqda. Tizimning asosiy vazifasi esa savdo do‘konini real vaqt rejimida nazorat qilishni ta’minlaydi.

Smart savdoni osonlashtirish (Smart Trade Facilitation) C&ED “Yagona Savdo Oynasi” (*Trade Single Window, keyingi o‘rinlarda “TSW”*) dasturini yaratishdi. [6]

Hukumat TSWni uch bosqichda amalga oshirdi. Gonkongning savdo va logistika markazi sifatida raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlash uchun Gonkong maxsus ma‘muriy hududi hukumati savdo hamjamiyatiga import va eksport savdo hujjatlarini taqdim etish uchun bir martalik elektron platformani taqdim etish uchun TSWni ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi. 2018-yil dekabr oyida birinchi marta 14 turdagi savdo hujjatlarini qamrab olgan 1-bosqichi to‘liq xizmat ko‘rsata boshladi. Natijada, 2022 yil 1-bosqich xizmatlari doirasida 11 560 ga yaqin litsenziya va ruxsatnomalar berildi, bu esa berilgan tegishli hujjatlarning yillik sonining qariyb 90% ni tashkil qiladi.

1-bosqich muvaffaqiyatidan so‘ng, 2023-yil 15-mayda TSWning 2-bosqich xizmatlari ishga tushirildi. U 14 turdagi savdo hujjatlarini qamrab oldi va jami 28 turdagi savdo hujjatlarini qamrab olish uchun bosqichma-bosqich kengaytirildi. TSWning 2-bosqichi foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun yangi funksiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Bularga hisobni boshqarishning ilg‘or funksiyalari, “iAM Smart” online platformasini (7-, 8-rasmlar) to‘liq qo‘llab-quvvatlash, tegishli davlat idoralarining axborot tizimlari bilan uzluksiz interfeys, bildirishnoma xizmatini taqdim etish va ommaviy ravishda yuborishga imkon beruvchi funksiyalar kiradi. “iAM Smart” online bot 28 turdagi savdo hujjatlarini online tarzda qabul qilib, “elektron imzo” qo‘yadi.



7-rasm. “iAM Smart” bot.



8-rasm. “iAM Smart” online platformasi.

3-bosqichda esa, import va eksport deklaratsiyasini, yuk ma‘lumotlarini taqdim etishni, shu jumladan, turli transport turlari bo‘yicha oldindan yuk ma‘lumotlarini, yuk manifestini va yuk hisobotini hamda bojxona tovarlarining kelib chiqish sertifikatini va ruxsatnomasiga arizalarini oladi. Bu bosqich 2026-yildan boshlab ishga tushishi kutilyapti.

Smart biznesni rivojlantirish (Smart Business Development) – C&ED “Savdoga ko‘maklashuvchi” rolini oshirish maqsadida va TIF ishtirokchilariga qulayliklar yaratish maqsadida, Gong Kong Vakolatli iqtisodiy operatori (*keyingi o‘rinlarda VIO*) dasturini 2010-yildan beri sinovdan o‘tkazib, foydalanib kelmoqda [7].

VIO — bu Jahon Bojxona Tashkiloti (*JBT*) Xavfsiz va global savdoni osonlashtirish uchun standartlar bo‘yicha SAFE Framework (*Xavfsizlik ramkasi*) ostidagi konsyepsiya. Bu xalqaro ta‘minot zanjiri xavfsizligini oshirish va qonuniy tovarlarning harakatlanishini osonlashtirish uchun bojxonadan biznesga hamkorlikni ifodalaydi. Hozirgi vaqtda JBT a‘zolarining aksariyati “Xavfsizlik ramkasi”ni amalga oshirish niyatlarini bildirishdi.

Bundan tashqari, Gong Kongning aksariyat asosiy savdo hamkorlari so‘nggi yillarda o‘zlarining VIO dasturlarini to‘liq ishga tushirdilar. Gong Kong VIO dasturi, 2010-yildan beri muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazilib, ochiq va ixtiyoriy sertifikatlash rejimi ostida Bojxona va Aksiz departamenti tomonidan boshqariladi.

Gonkong bojxonasi yuridik shaxslarni VIO dasturiga maqom berish tartibi bo‘yicha baholashni o‘tkazishdan oldin tegishli kompaniyani xabardor qiladi, agar kompaniya tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi kerak bo‘lsa, u ham xabardor qilinadi. Bundan tashqari, bojxona vaziyatga qarab kompaniyaning biznes hamkorlarini ko‘rib chiqish uchun tanlaydi.

Bojxona organi kompaniyaning sertifikatlashtirish standartlariga muvofiqlik darajasini baholaydi va agar kerak bo‘lsa, tuzatishlar bo‘yicha maslahat beradi. Sertifikatlash jarayoni qancha davom etishi kompaniya tomonidan bojxonaga taqdim etilgan ma‘lumotlarning to‘liqligiga, kompaniyaning biznes operatsiyalarining murakkabligiga va birgalikdagi baholash saytlarining soniga bog‘liq.

VIO sifatida sertifikatlangan mahalliy korxonalar sertifikat beriladi va u uch yil muddatga amal qiladi. VIO dasturi 2012-yilda ishga tushgan, 2021-yil holatiga ko‘ra, 70 dan ortiq mahalliy kompaniyalar ro‘yxatdan o‘tgan.

AYEO iPASS — bu C&ED tomonidan “Gonkong vakolatli iqtisodiy operatori sxemasi” doirasida ishga tushirilgan onlayn o‘z-o‘zini baholash vositasi bo‘lib [8], maqsadi Gonkongda VIO bo‘lishdan manfaatdor bo‘lgan kompaniyalarga onlayn ariza berish shartlariga javob berishini tezda tushunish imkonini berishidir. Gonkong bojxona organlari tomonidan tegishli kompaniyalarga berilgan VIO malakasi 1-darajali yoki 2-darajaliga bo‘linadi.

Kompaniyalar kerak bo‘lganda o‘z-o‘zini baholash uchun tegishli darajadagi savollarni tanlashi mumkin. Barcha savollarga javob berish uchun taxminan 15-20 daqiqa vaqt ketadi. Natijalar kompaniyaning VIO bo‘lish uchun ariza berishga tayyorligini dastlabki baholashni ko‘rsatadigan uchta darajaga bo‘linadi (3-jadval).

3-jadval

Darajasi	AYEO iPASS a‘zo bo‘lish tayyorgarligi
Yashil	tayyorgarlikning yuqori darajasi
Sariq	tayyorgarlik o‘rtacha
Qizil	past tayyorgarlik

Yakuniy natijalar kompaniyaning har bir mezon bo‘yicha ish faoliyatini ko‘rsatadi va ta‘minot zanjiri xavfsizligi darajasini oshirish bo‘yicha professional bojxona maslahatlarini beradi.

VIO dasturi bo‘yicha turli imtiyozlar, jumladan, bojxona tekshiruvini qisqartirish, ustuvor bojxona rasmiylashtiruvda yuk oqimi samaradorligini va kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.

Respublikamizda amaldag bojxona tizimini Smart bojxona tizimiga o'tishda barpo etilgan bojxona xizmatlari poydevorini Gong kong Smart bojxonasi xizmatlarini qiyosiy tahlili 4-jadvalda keltirildi.

4-jadval

№	Gong kong Smart bojxonasi xizmatlari	O'zbekiston bojxonasi xizmatlari
1.	<p>“Smart” chegara boshqaruvi tizimi quyidagi murakkab analitik tizimlardan iborat:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Rentgen tasvirlarini baholash platformasi - Avtomobilni tekshirish va strategik tahlil tizimi - Aqlli spirtli ichimliklar bojini baholash tizimi - Yuk to'g'risidagi katta ma'lumotlar tizimi - Davlat xizmatlarini yangilash tizimi 	<p>Chegara boshqaruvi tizimi quyidagicha:</p> <p>ToshAero va Samarqand aeroportlarida qo'l yuklarini skanerlash orqali xavf to'g'risida axborot olish (Inspeksion ko'rik majmualari (IKM) va qo'l yukini skanerlovchi rentgen apparat (HEIMANN) <i>Baholash platformasi va mexanizmi yo'q</i></p> <p>- ARA axborot tizimi – chegara bojxona posti orqali harakatlangan avtotransport vositasining davlat raqamini avtomatik aniqlaydi, axborot tizimiga ma'lumotni uzatadi.</p> <p style="text-align: center;">-</p> <p>www.my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida</p> <ul style="list-style-type: none"> - ed1.customs.uz, ed2.customs.uz – bojxona sayti orqali bojxona yuk deklaratsiyalarini elektron taqdim etiladi; - O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini avtomobil transportida olib o'tishda yuk tashuvchilar tomonidan Davlat bojxona xizmati organlariga oldindan elektron ma'lumot taqdim etish xizmati; - tovarlarni elektron deklaratsiyalash interaktiv xizmati. <p>Davlat xizmatlarini yangilash tizimi faqat dimanik usulda</p>
2.	<p>Smart tekshirish va ishlarni boshqarish tizimi</p> <ul style="list-style-type: none"> - Smart Investigation va Customs Crime Analytic System 	<p>Tekshirish va bojxona jinoyatlarini tahlil qilish tizimi</p> <ul style="list-style-type: none"> - “Bojxona qoidabuzarlik holatlari hisobini yuritish” AAT;

	(Smart tekshirish va Bojxona jinoyatlarini tahlil qilish tizimi);	- Bojxona qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti o'rtasida o'zaro axborot almashinuv tizimi
	- "Smart Case Management" (Ishlarni boshqarish)	- Sedo – e-hujjat aylanish axborot tizimi - E-xat muhofazalangan elektron pochta tizimi
3.	Smart Trade Facilitation (Smart savdoni osonlashtirish)	TIF ishtirokchilari uchun savdoni osonlashtirish
	- Trade Single Window; - "iAM Smart" online bot	"Yagona darcha" bojxona axborot tizimi
4.	Smart Business Development (Smart biznesni rivojlantirish)	Biznesni rivojlantirish
	- AYEO iPASS	- "Elektron murojaatlarni qayta ishlash" AAT (tovarlarni qayta ishlash bo'yicha ruxsatnoma berish)

Xulosa va takliflar

O'zbekiston bojxonasini Smart bojxona tizimiga o'tishi uchun poydevor barpo etilgan, biroq quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Bular,

- "Smart" bojxona tizimini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqish;
- "Smart" bojxona tizimini rivojlantirish strategiyasi amalga oshirish uchun maqsadlar, vazifalar, bosqichlar va moliyalashtirish manbalarini belgilash;
- Amaldagi bojxona infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun sun'iy intellektga asoslangan axborot tizimlari, "Smart" texnologiyalar, Big data bazalari, Internet buyumlari (IOT), blokcheyn texnologiyalarini tizimini yaratish va ularni bilan integratsiyani ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasi va Bojxona qonunchiliklarini takomillashtirishda "Smart" bojxona talablariga muvofiqlashtirish.

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarida Smart bojxona tizimini keng joriy qilishda quyidagi takliflar havola qilinadi. Bular,

1. "Yagona Darcha" axborot tizimi doirasida Smart bojxonani joriy qilishda Gonkong "Trade Single Window"ning ma'lumotlari qayta ishlash mexanizmini qo'llash. Bunda sun'iy intellekt, kompyuter dasturining o'rganishi, IOT texnologiyalari, BIG DATA, blokcheyn va boshqa ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda xalqaro, respublika, idora va idoralararo doirasida TIF qatnashchilari, yo'lovchilar, transport vositalari egalari, sayyohlarga yengillik yaratish, rasmiyatchilik vaqtini minimallashtirish, hamda tezkor axborot va ma'lumotlarni olishga erishiladi.

2. O'zbekiston bojxonasida davlat idoralarning axborot tizimlari bilan uzluksiz aloqa interfeysini ta'minlash, bildirishnoma xizmatini taqdim etish va ommaviy ravishda yuborishga imkon beruvchi funksiyalarni avtomatlashtirish maqsadida "iAM Smart"

online platformasini joriy qilish orqali savdo hujjatlarni online tekshirish va inson omilini kamaytirishga erishiladi.

3. SI funksiyalariga ega mavjud rentgen tekshiruvi va kompyuter tomografiyasi (KT) skanerlarini qurilmalarini xarid qilish. Mavjud rentgen tekshiruvi uchun avtomatik aniqlash qurilmalari shubhali obyektlarning rentgen tasvirlarini ma'lumotlar bazasidagi rentgen tasvirlariga nisbatan tahlil qilish orqali shubhali obyektlarni tekshirishga yordam beradi, kontrabanda predmetlarini tezda avtomatik ravishda tanib olish imkonini beradi.

4. Murakkab analitik tizimlarni qo'llash. Ichimliklar bazasiga asoslangan aqlli spirtli ichimliklar vazifasini aniqlaydigan va baholash tahlil qilish tizimini bojxona organlarida boj to'lovlarini undirishda qo'llash. Ushbu tahlil qilish tizimi bojxona chegarasida boj qiymatini tezkor baholashni ta'minlashga, suyuqlik bo'yicha bojni baholash va yo'lovchilarni kutish vaqtini qisqartirishga hissa qo'shadi.

5. Bojxona tizimida bojxona jinoyatlarini tahlil qilishda Smart Investigation va Customs Crime Analytic System tizimlarini joriy qilish [9]. Bunda "Katta ma'lumotlarni tahlil qilish tizimi" ijtimoiy media platformalari va savdo veb-saytlari orqali soxta mahsulotlarni sotuvchi potensial noqonuniy do'konlar haqida topilgan katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash orqali bojxona organi mansabdor shaxslarga amaliy yordam berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.customs.gov.hk/en/home/inde> - Gonkong bojxona va aktsiz departamenti.
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Belt_and_Road_Initiative — Bir makon bir yo'l tashabbusi.
3. Nedopil, Christoph. "[Countriyes of the Belt and Road Initiative](#)". Green Finance & Development Center, FISF Fudan University, Shanghai (2022). Qaraldi: 13-oktabr 2023-yil.
4. <https://www.legco.gov.hk/yr20-21/english/panels/se/papers/se20210706cb2-1249-5-e.pdf>. "Smart customs blueprint" loyihasi.
5. <https://youtu.be/GxHDB8317EQ> «Smart customs blueprint» loyihasi videosi.
6. <https://youtu.be/TwbeBqZ1MTM> «Trade Single Window» loyihasi videosi.
7. <https://youtu.be/TwbeBqZ1MTM> «Hong Kong Authorized Economic Operator Programme» loyihasi videosi.
8. AEO iPASS-online o'zini o'zi baholash vositasi-- <mailto:aeo@customs.gov.hk>.
9. <http://www.gartner.com/it-glossary/big-data> Katta ma'lumotlar bilan ishlash tizimi (Big Data system of WCO).

Copyright © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

